**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**
**TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSETETI**
**KOMMUNAL VA MEHNAT GIGIYENASI, EKOLOGIYA KAFEDRASI**

# *“Urbanizatsiya va globolizatsiya sharoitida ekologik muammolar va ularni aholi salomatligiga ta’siri” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

# *Республиканская научно-практическая конференция на тему «Экологические проблемы в условиях урбанизации и глобализации и их воздействие на здоровье населения»*




**TOSHKENT-2026**

*“Urbanizatsiya va globolizatsiya sharoitida ekologik muammolar va ularni aholi salomatligiga ta’siri” mavzusidagi*
*Respublika ilmiy-amaliy anjumani*

**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi**

**Toshkent davlat tibbiyot universiteti**

**Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya kafedrasi**

# *“URBANIZATSIYA VA GLOBOLIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI AHOLI SALOMATLIGIGA TA’SIRI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI*

***Toshkent shahrida 2026 yil 12 martda o‘tkazilgan***

***Respublika ilmiy-amaliy anjuman***

***materiallari to‘plami***

**Toshkent -2026**

**Tahrir hay’ati:**

| | |
|---|---|
| **Boymurodov Sh.A.** | - Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektori t.f.d., professor |
| **Iskandarova G.T.** | - Toshkent davlat tibbiyot universiteti Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya kafedrasi mudiri, t.f.d., professor |
| **Tashpulatova M.N.** | - Toshkent davlat tibbiyot universiteti Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD |
| **Rashidov V.A.** | - Toshkent davlat tibbiyot universiteti Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya kafedrasi assistenti |

**Moderatorlar:**

Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya kafedrasi dotsenti:
**Yusupxo‘jayeva A.M.**;
Kommunal va mehnat gigiyenasi, ekologiya kafedrasi assistentlari:
**Xadjayeva U.A., Islamova G.A.**

To‘plamga 2026-yil 12-martda bo‘lib o‘tgan “Urbanizatsiya va globolizatsiya sharoitida ekologik muammolar va ularni aholi salomatligiga ta’siri” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalari kiritilgan.

***To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni va sifati uchun muallif(lar) javobgardir***

manbalarini aniqlashga imkon beradi. Atmosfera havosi ifloslanishi monitoringi atmosfera havosi holati ustidan ishonchli nazoratni ta’minlab, avariyaviy vaziyatlar yuzaga kelish ehtimoli to‘g‘risida, oldindan ogohlantirish imkonini beradi. Havoning ifloslanish oqibatlarni bartaraf etish bo‘yicha profilaktik choralar ishlab chiqish, hamda aholi va atrof-muhitga zararli ta’sirni kamaytirish imkonini beradi.

## GLOBALLASHUV SHAROITIDAYUQUMLI KASALLIKLAR PROFILAKTIKASINING DOLZARB MUAMMOLARI

***Toshkent davlat tibbiyot universiteti***
***Atrof muhit gigiyenasi kafedrasi***
***Sherqo‘ziyeva G.F., Salomova F.I., Toshpo‘latov B.M., Fayziyev O‘.***

Aholi salomatligini muhofaza qilish borasida profilaktika chora-tadbirlarini samarali muvofiqlashtirish tizimi mavjud emasligi, fuqarolarning jismoniy faolligi darajasini qo‘llab-quvvatlash va sog‘lom turmush tarzini yuritishda kelishilgan choralar ko‘rish imkonini bermayapti. Aholi salomatligini saqlash borasida faol, foydali ishlarni amalga oshirish, xalqimizning tibbiy madaniyatini xalqimizning tibbiy madaniyatini yuksaltirish eng muhim dolzarb masaladir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tahliliga ko‘ra, davolash inson salomatligini ta’minlashning 10 foiz omili, xolos. Irsiy omillar 15 foiz, atrof-muhit 20 foiz, eng asosiysi, turmush tarzi 55 foizni tashkil etadi. Shu sababli aholining tibbiy madaniyatini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollarning sog‘ligini mustahkamlash, sog‘lom avlod tug‘ilishi va uni tarbiyalashning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilingan.

Insonning tibbiy madaniyatini oshishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar quyidagilar: - aholini ijtimoiy himoya qilinishining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi; - aholini ijtimoiy himoyasini huquqiy asoslarining yaratilishi; - huquqiy

hujjatlarni amaliyotga joriy etilishi; - davlat va nodavlat tashkilotlarining huquqiy hujjatlarni amaliyotga joriy etishdagi faoliyati va hamkorligi; - jamiyatdagi sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot-tashviqot qilish va shakllanishi; - shaxsning tibbiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar; - oilada tibbiy madaniyatga bo‘lgan munosabatning ijobiy tomonga o‘zgarishi; - maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keying ta’lim tizimida tibbiy madaniyat sohasidagi islohotlarning natijadorligi; - keng jamoatchili o‘rtasida tibbiy madaniyatni rivojlantirish sohasidagi chora-tadbirlar va boshqalar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib biz aholi o‘rtasida mavsumiy yuqumli kasalliklarda profilaktikani kuchaytirish maqsadida aholini tibbiy savodxonligini oshirish, yuqumli kasalliklar tarqalishini oldini olishda qanday ma’lumotlarga ega ekanligini aniqlash uchun so‘rovnoma o‘tkazildi va olingan natijalarni tahlil qildik. Aholining tibbiy savodxonligini aniqlash uchun turli guruhlarda so‘rovnoma o‘tkazildi. Olingan natijalar statistika usulda qayta ishlandi.

Yuqumli kasalliklarning oldini olishda sanitariya va gigiyena qoidalariga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etganligi sababli ushbu so‘rovnomada quyidagi natijalarni oldik. Anketa so‘rovnomasidagi yuqumli kasalliklar bilan kasallangan bemorlarni parvarish qilish haqida ma’lumotlarga egamisiz degan savolga so‘rovnomada ishtirok etgan respondentlar quyidagicha javob berganlar: 33 (27,5%) ta ishtirokchi -ha, 87 (72,5%) tasi –yo‘q, bu esa ko‘pchilik bemorlarni parvarishlashni bilmasliklarini ko‘rsatadi. Siz yaqinlaringizga yuqumli kasalliklar haqida ma’lumot bera olasizmi degan savolga 14 (11,6%) ta ishtirokchi -ha, 106 (88,3%) tasi – yo‘q deb javob berganlar.Aholi o‘rtasida yuqumli kasalliklarning tarqalish holatini tekshirganimizda “Siz qaysi yuqumli kasallik bilan kasallangansiz” savoliga 33(27,5%) ta –gripp, 8 (6,6%) gepatit, 12(10,0%) qizamiq, 62 (51,6%)-covid-19 ва 5 ,(4,1%)-botulizm bilan kasallanganliklarini qayd etganlar. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ishtirokchilarning eng ko‘pi Covid-19 kasalligi bilan kasalllanganliklarini ma’lum, ya’ni umumiy 120ta ishtirokchidan (51,6%)

xususan 62 tasi.Tibbiy madaniyat jamiyat kelajagining mustahkam poydevoridir. Bu borada avvalo, yoshlarning tibbiy madaniyatga ega bo‘lish zaruriyatini anglashi va unga qat’iyat, o‘ziga ishonch va mas’uliyat bilan yondashib, tibbiy bilimlarni o‘zlashtirishga jiddiy e’tibor berishi, tibbiy faoliyatning nazariyasi va amaliyoti bilan chuqurroq tanishishi, bilimlarni hayot va amaliyot bilan bog‘lay olishi zarur.

Olingan natijalardan shuni xulosa qilish mumkinki yoshlarning tibbiy madaniyatga ega bo‘lish hozirgi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi. Chunki so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki ko‘pchilik ishtirokchilar yuqumli kasalliklar va ularning profilaktikasi haqida to‘liq ma’lumotga ega emaslar.

## GLOBOLIZATSIYA SHAROITIDA SUV HAVZALARINING IFLOSLANISH MUAMMOLARI

***Toshkent davlat tibbiyot universiteti***
***Atrof muhit gigiyenasi kafedrasi***
***Sherqo‘ziyeva G.F., Abdurashidova D.J.***

Ochiq suv havzalarining ifloslanishi bugungi kunda global miqyosdagi eng o‘tkir ekologik muammolardan biri bo‘lib, u bevosita insoniyatning yashashi va barqaror rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Yer yuzidagi umumiy suv zaxirasining atigi 1 foizdan kamrog‘i ichishga yaroqli va ochiq suv havzalari (daryolar, ko‘llar, suv omborlari) ushbu zaxiraning asosiy qismini tashkil etadi. Aholining jadal o‘sishi, sanoatlashtirish va urbanizatsiya jarayonlari ochiq suv havzalariga tushayotgan antropogen bosimni misli ko‘rilmagan darajada oshirib yubordi._Suv orqali quyidagi patogenlar yuqishi mumkinichak infektsiyalari:(vabo, tif isitmasi, paratif isitmasi, dizenteriya), virusli kasalliklar (yuqumli gepatit, poliomielit, enterovirus, masalan, Coxsackie A va B kasalligi, adenovirus infektsiyalari. Salmonellyoz (ikterik leptospiroz, anikterik leptospiroz, tulyaremiya.

*Safarov M.B., Toshpo‘latova M.*
**SHAHAR CHIQINDILARINI QAYTA ISHLASH VA ULARDAN FOYDALANISH** 57
*Safarov M.B., Nabijanova Z.*
**O‘ZBEKISTON CHIQINDILAR MUAMMOSINI HAL QILISH BO‘YICHA NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR** 59
*Safarov M.B., Sobirova H.*
**CHIQINDILARNI BOSHQARISH BO‘YICHA XORJJIY DAVLATLAR TAJRIBASI** 61
*Safarov M.B., Zayniddinova X.M.*
**AQLIY RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR XONALARINING ICHKI MUHIT DIZAYNI** 62
*Tuxliyeva M.R., Mirzanazarova E.Y.*
**TA’LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK TARBIYA ORQALI MAISHIY CHIQINDILARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI** 63
*Ummatova D.O., Aynakulov M.A.*
**PROFILAKTIK TIBBIYOTDA TELEMEDITSINA VA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING BEMOR PSIXOLOGIK HOLATIGA TA’SIRI** 66
*Xudoyberdiyeva X.O.*
**BACHADON BO‘YNI SARATON KASALLIGINI KELIB CHIQISH SABABLARIGA ATROF - MUHIT OMILLARINING O‘RNI** 68
*Shabdullayeva L.O., Xoliqova M.T.*
**YUQUMLI VA YUQUMLI BO‘LMAGAN KASALLIKLARNING EPIDEMIOLOGIYASI VA PROFILAKTIKASI** 72
*Shabdullayeva L.O., Xoliqova M.T.*
**ATROF-MUHITNING IFLOSLANISHI VA EKOLOGIK MONITORING** 78
*Sherqo‘ziyeva G.F.*
**ATMOSFERA HAVOSI IFLOSLANISHI MONITORINGINING AHAMIYATI** 79
*Sherqo‘ziyeva G.F., Salomova F.I., Asenbayeva l.S., Yermatova S.G., Toshpulatov B.M., Fayziyev O‘.*
**GLOBALLASHUV SHAROITIDAYUQUMLI KASALLIKLAR PROFILAKTIKASINING DOLZARB MUAMMOLARI** 81
*Sherqo‘ziyeva G.F., Salomova F.I., Toshpo‘latov B.M., Fayziyev O‘.*
**GLOBOLIZATSIYA SHAROITIDA SUV HAVZALARINING IFLOSLANISH MUAMMOLARI** 83
*Sherqo‘ziyeva G.F., Abdurashidova D.J.*